

DARSDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI
TOMONLARI

Sherqo'ziyeva Zarnigor Farxodjon qizi

FarDu 1-kurs talabasi

Muhammadjonova O'g'iloy Baxodirjon qizi

FarDU 1-kurs talabasi

Anotatsiya: *Mazkur maqolada, interfaol metodlar haqida tushuncha, hamda interfaol ta'lif shaklining samarali tomonlari, shuningdek interfaol ta'lif va metodlar tizimlari haqida ma'lumotlar berilib, interfaol ta'lif tizimi va an'anaviy ta'lif tizimining farqli tomonlari keng yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *intrefaol ta'lif, za'monaviy ta'lif, interaktiv usul, ta'lif mazmuni, pedagogik texnologiya, an'anaviy dars, ta'lif metodlari.*

Anotation: *this article provides information about the concept of interactive methods, as well as the effective aspects of the form of interactive learning, as well as systems of interactive learning and methods, and highlights the differences between the interactive learning system and the traditional learning system.*

Keywords: *intrefaol education, modern education, interactive, educational content, pedagogical technologiest, traditional lessons, teaching methods.*

Аннотация: В этой статье дается представление об интерактивных методах, а также об эффективных аспектах интерактивной формы обучения, а также о системах интерактивного обучения и методах, и подробно освещаются различия между системой интерактивного образования и традиционной системой образования.

Ключевые слова: *интерактивное обучение, современное обучение, интерактивное, образовательное содержание, педагогические технологии Т, традиционные уроки, методы обучения.*

Zamonaviy ta'lifni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar foliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lif jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Quyida ta'lif amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida talabalar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali talabalarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

"Interaktiv" (interfaol)-inglizcha so'z bo'lib, "interact"- "inter"-bu o'zaro, "act"-bu "harakat qilmoq?" ma'nosini anglatadi. Umumlashtirganda esa interaktiv usullar – (Interaction – inglizcha -aro, o'zaro, ast - harakat ma'nosini anglatadigan so'zlardan iborat) o'zaro harakat, yoki hamkorlik asosida harakatni bildiradi.

Interfaol ta'lim bu:

- strategiya va metodologiya;
- doimiy muloqotga asoslangan metodlar tizimi;
- birgalikdagi o'qish va faol ishtirok etishdir.

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, talabalar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, auditoriya jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

3. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar:

Nº	Asosiy munchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha uchun qulay bo'lgan darsari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol sning qulay bo'lgan turlari shaklida laniladi. Boshqa mavzular uchun anaviy dars qo'llaniladi
2	Dars maqsadi	Dars bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, stahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil lash, xulosaga kelish, ularni bayon sh, himoyalashga o'rgatish.
3	O'qituvchining ifalari va ish usullari	Yangi mavzuni quntirish, mustahkamlash, orat, topshiriqlar berish.	Talabalarning mustaqil ishlashlarini aqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, orat, yakuniy xulosalarni asoslab ish.
4	Darsga tayyorgarlikka blar	Dars rejasи, konspekt va aktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ar uchun topshiriqlar, tarqatma seriallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	Talabalar tayyorgarligiga blar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy munchalarni va dastlabki ma'lumotlarni sh.

6	Talabaning vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni arish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, osalarini boshqalarga solishtirish va uniy xulosaga kelish.
---	---------------------------------------	---	--

Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.
 2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun talabalar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.
 3. Interfaol mashg'ulotda talabalarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta'lif usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, talabalarga, ta'lif vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim. So'nggi yillarda maktab ta'lif tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lif beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lif mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. U o'z o'quvchi-talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi.

Ta'lrim mazmuning interfaol metodlar bilan aloqasi. Shunday qilib, biz o'qitish metodlarini tanlashni takomillashtirishning birinchi muhim shartini ularni tizimlashni, o'quv jarayonini rejalashtirish muolajalariamaliyotida qo'llash bilan bog'liqlikni aniqlashtiradigan yaxlit yondashuvni tavsifladik. Pedagogikada an'anaviy metodlarni tanlash mezonlari katta miqdorda ishlab chiqilgan, keyingi yillarda didaktik olimlarning ishlarida ularning yigirmadan ortig'i keltiriladi. Interfaol metodlarni tanlash mezoni - ularning ta'lrim va tarbiyani rivojlantirish masalarni yechishga yuqori yo'nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo'li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir. Interfaol metodlarni tanlashning naybatdagi mezoni

ularning ta'lif mazmuni xususiyatiga mos kelishdir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu bousdan bu mezonnning hisobga olinishi shubhasiz . Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa , boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi .Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezon ularning talabalar o'quv imkoniyatlariiga to'liq mos kelishi , ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta'minlashdir. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariiga mos kelishi lozim.Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitsh jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lif mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi.Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir.Darvoqe, o'qitishning yalpi,guruuhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi.Misol uchun debat metodi ikki talaba o'rtasidagi bahs hisoblansa, "aqliy hujumda" guruhdagi barcha talabalarning ishtiroti zarur bo'ladi. Interfaol mtedlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi. Ma'lumki,pedagogik texnolgik ham ma'lum qonuniyatlar asosida loyihalanadi va o'quv jarayonini tashkil etishga asos yaratadi, joriy qilingach esa yakuniy natijani,talabaning u yoki mavzuni mustaqilligini ta'minlaydi.

Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lif usullarini yaxshi bilishi kerak. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Bu borada o'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik vositalar:ta'kidlovchi savollar bunda o'quvchining bergan savoliga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin.O'qituvchi alternativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda, fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Interfaol metod va usullarni sanab o'tamiz: aqliy hujum, klasterlar,mustaqlil xat, Venn diagrammasi, harakatli ma'ruza, o'zaro ta'lif, muallifga savollar, «bilaman, bilishni istayman, bilib oldim» (BBB), insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, hamkorlikda izlanish, argumentlangan esse va boshqalar.

Bu usullar asosan basqichlarga ajratilgan dars jarayonida qo'llaniladi (chaqiruv, anglash, fiklash) va har birida o'qituvchi o'quvchilarga tegishli topshiriqlar beradi. Bu metodlar va usullar o'quvchida kommunikativ qobiliyatning o'sishiga, o'quvchilar orasida hissiy aloqa o'rnatilishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhda ishlashni, o'zgalarining fikrini tinglay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etishni o'rgatibgina

qolmasdan, unda o'ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi. O'quvchilarni ma'naviy barkamol, aqliy salohiyati yuqori, mustaqil va erkin fikrlovchi, ijodkor bo'lib shakllanishida pedagogik innovatsiyalarni qo'llash, integrativ jarayonga asoslanish, interfaol metodlardan foydalanish kamlik qiladi. O'quvchi shaxsining ichki olamini hisobga olish kerak bo'ladi. Ya'ni uning shaxsiy fikri bilan hisoblashish, undagi qobiliyatlarni payqash, uning so'z boyligini oshib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsata olish zarur. Xo'sh, buning uchun nima qilish kerak degan savol o'z-o'zidan tug'ilishi muqarrar. Quyidagi qoidalar darslarni samarali tashkil etish uchun muhim omil bo'lishi mumkin:

- dars qoldirmaslik va kech qolmaslik;
- aniq maqsad qo'yish va unga erishish;
- vaqt dan unumli foydalanish;
- fikrni bo'lmaslik;
- eshita olish, savol berish madaniyatiga rioya qilish;
- o'zgalar fikrini hurmat qilish;

Bu qoidalar shaxsni yuqori ma'naviyatli, keng fikrlovchi, ijodkor, bulib shakllanishiga yordam beradi, shuningdek o'zgalarni fikrini hurmat qilishga o'rgatadi. O'quvchilar dars jarayonida shu qoidalarga amal qila olishsa o'z fikrlarini, g'oyalarini aytishdan cho'chishmasa, serg'ayrat, shijoatli, qalb tuyg'ulari ilmda beorom bo'lsa, o'zgalarni fikrini hurmat qila olishsa darslar o'z samarasini berishi aniq. Hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalaydigan, o'zi mustaqil izlanib, bilimlarni egallaydigan darajaga olib chiqish asosiy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: «O'zbekiston», 2011.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma uch yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi ma'ruzasi.- T.: Xalq so'zi, 169-son, 1 sentyabr, 2014.
3. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: "Moliya" nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. "Nasaf", 2000 y.-80 b.
6. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.-T.: "Fan". 2005.
7. Farberman. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.- T.:2001
8. Karimov I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T., 2008
9. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.T.: "O'zbekiston",2008

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-5 (30-May)

10. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, 2(11), 985-991.
11. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. *Science and Education*, 2(9), 309-314.
12. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 535-542.
13. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B3), 40-46.
14. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. *Journal of new century innovations*, 14(3), 33-36.
15. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, 4(1), 52-59.
16. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOQS jurnali*, 18(1), 220-225.
17. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
18. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
19. Egamberdiyev, O., Khodarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES